



XALQ DEPUTATLARI GULISTON TUMANI KENGASHI QARORI

Guliston tumani 120300, Turkiston ko'chasi, 13-uy. Tel: (67) 796-24-57

2023 - yil 26 - aprel

VI-62-59-9-124-K/23

Guliston tumani hokimligi

Guliston tumanini innovatsion hududga aylantirish bo'yicha "Yo'l xarita"sini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilning 7-aprelda Sirdaryo viloyatiga tashrifi doirasida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, Guliston tumanini innovatsion hududga aylantirish bo'yicha "Yo'l xarita"sini tasdiqlash to'g'risidagi tuman hokimining ma'ruzasini tinglab hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Guliston tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Guliston tumanini innovatsion hududga aylantirish bo'yicha "Yo'l xarita"si yuzasidan Guliston tumani hokimi S.Begimqulovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston tumanini innovatsion hududga aylantirish bo'yicha "Yo'l xarita"si ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman sektor rahbarlari (S.Begimqulov, D.Sangirov, Sh.Ibragimov, Sh.Umurov), tuman hokimining barcha o'rinbosarlariga, tumandagi korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

Guliston tumanini innovatsion hududga aylantirish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xarita"da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida sifatli amalga oshirish;

innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va

innovatsiya sohalarini rivojlantirish;

xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ilmiy, innovatsion va texnologik loyihalarni amalga oshirish;

kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali tumanning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘sishini ta’minlash;

innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish;

investitsion loyihalarda innovatsiyalarni joriy qilish, hududda o‘zlashtiriladigan investitsiya loyihalarini texnologik yechimlar bilan to‘ldirish va shu yo‘nalishlarga investitsiya olib kelinishida ko‘mak berilsin.

4. Guliston tumanida yangi tashkil etilayotgan innovatsion korxonalarini joylashuv manzillarini mas’ullar va deputatlar ishtirokida qayta ko‘rib chiqib viloyat hokimligiga takliflar bersin.

5. Tumanni innovatsion hududga aylantirish bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xarita” ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida har chorak yakuni bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot taqdim etib borilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman sektor rahbarlari, tuman hokimining sohalar bo‘yicha barcha o‘rinbosarlariga va nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S.Begimkulov

Xalq deputatlari Guliston tuman Kengashining
2023 yil 26 apreldagi
VI-62-59-9-124-K/23-son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston tumanini sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, ta'lim va tibbiyot bo'yicha "Ilg'or innovatsiyalar hududi"ga aylantirish yuzasidan

"YO'L XARITA"SI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
I. Tuman (shahar)ni uning ixtisoslashuvi va mavjud imkoniyatlaridan qilib chiqib sanoat, tadbirkorlik (bio-farmasevtika, qurilish materiallari, oziq-ovqat, elektro-texnika va boshqa sohalar) bo'yicha "Ilg'or innovatsiyalar hududi"ga aylantirish yuzasidan chora-tadbirlar					
1	Guliston tumanida Xitoy davlati bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ijtimoiy va iqtisodiy muhim bo'lgan 3 ta loyihalarni amalga oshirish. Bunda; 1. Xitoy davlati bilan hamkorlikda Dukkakli o'simliklarni qayta ishlashni tashkil qilish. 2. Xitoy davlati bilan hamkorlikda Bazalt tolasini qayta ishlashni tashkil qilish. 3. Xitoy davlati bilan hamkorlikda Sun'iy toladan aralash ip-kalava maxsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil qilish.	Xitoylik yirik ishlab chiqaruvchilar va investorlar bilan muzokaralarni olib borish hamda amalga oshiriladigan loyihalarni barcha infratuzilmalar bilan ta'minlash.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar, tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, tijorat bank kreditlari	2023-yil may-iyun	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, qishloq xo'jaligi vazirligi, Sirdaryo viloyat hokimligi, markaziy bank
2	Guliston tumaniga jalb etiladigan investisiyalar, shu jumladan xorijiy investisiyalar hajmi 78,5 mln dollarlik 12 ta loyihalarni tashkil qilish. (50 mln dollar xorijiy investisiyalarni jalb qilish topshirig'idan kelib chiqqan holda).	Aniqlangan loyihalarni tarmoq jadvallarni ishlab chiqqan xolda amalga oshirilishi choralarini ko'rish hamda xorijiy investisiyalarni o'zlashtirilishini ta'minlash.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar, tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, Tijorat bank kreditlari	2023-yil dekabr	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi, Markaziy bank

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
3	Guliston tumanida 2023-yilda qiymati 68,3 mln dollarlik 94 ta investisiya loyihalarini ishga tushirish.	Loyihalarning amalga oshirilishi choralarini ko'rish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, loyihalarni ishga tushishini ta'minlash.	Tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, tijorat bank kreditlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar	Doimiy	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi, Markaziy bank
4	Guliston tumanidagi sanoat zonalarida 2023-yilda qiymati 8,2 mlrd. so'mlik 8 ta loyihalarni ishga tushirib, 9,5 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish.	Loyihani muddatida ishga tushirish bo'yicha nazorat o'rnatish va muammolarini hal etish.	Tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, Tijorat bank kreditlari	Doimiy	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi, markaziy bank
5	Guliston tumanida " Loyiha guruh "lari tomonidan ishlab chiqilgan 16 ta investisiya loyihalariga investorlarni aniqlash va amalga oshirilishini ta'minlash.	Loyihalarni amalga oshirish istagini bildirgan tashabbuskorlarni aniqlash va amalga oshirilishini ta'minlash.	Tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, Tijorat bank kreditlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar	2023-yil dekabr	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi, markaziy bank tuman hokimligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
6	Guliston tumanidagi kam quvvatda ishlayotgan 1 ta yirik sanoat korxonasi “Bek Metall Production” MCHJ quvvatini oshirish choralarini ko‘rish.	Korxonaning mavjud muammosini aniqlash, aniqlangan muammoni bartaraf etish choralarini ko‘rish, bajarilgan ishlar yuzasidan Xukumat komissiyasiga ma’lumot kiritish.	Tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari, Tijorat bank kreditlari	2023-yil aprel-dekabr	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi
7	Guliston tumanida oldingi yillarda ishga tushirilgan 7 ta loyihalarni to‘liq quvvatga olib chiqish.	Har bir loyihani joyiga chiqqan holda o‘rganish va muammolarni aniqlash, aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etgan xolda korxonaning to‘liq quvvatga chiqishini ta‘minlash. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hukumat komissiyasiga hisobot kiritib borish.	Tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari, tijorat bank kreditlari	2023-yil may Doimiy	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi, markaziy bank
8	Respublika yoshlar jamg‘armasidan yoshlarining ilmiy va innovasion, “startup” loyihalarini qo‘llab quvvatlashga 7,5 mlrd. so‘m mablag‘ ajratish.	Yoshlar o‘rtasidan yangi “startup” loyiha tashabbuskorlarni aniqlash ularning biznes reja takliflarini ishlab chiqish, moliyaviy ta‘minotni ajratish, ishga tushirilishini ta‘minlash.	Respublika yoshlar jamg‘armasi	2023-yil davomida	Respublika yoshlar jamg‘armasi, tuman hokimligi, yoshlar ishlari agentligi, tijorat banklari
9	Guliston tumanida bo‘sh turgan 16 ta ob‘yekt va 6,7 gektar samarasiz yotgan yer maydonlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	Mavjud bo‘sh turgan binolar mulkdorlari bilan yangi loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta‘minlash.	Tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari, Tijorat bank kreditlari	Doimiy	Sirdaryo viloyati hokimligi, Markaziy bank, Tuman hokimligi
II. Tuman (shahar)da Xitoy modeli asosida sanoatga ixtisoslashtirish, innovasion texnopark tashkil etish chora-tadbirlari					

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
10	“Zarbdor” MFY hududidagi 5,5 gektar yer maydonini toifasini o‘zgartirish.	Yer maydoni toifasini o‘zgartirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.		2023-yil may	Vazirlar Mahkamasi Respublika yer resurslari davlat kadastri palatasi
11	“Zarbdor” MFY hududidagi 5,5 gektar yer maydonida Tekstil va to‘qimachilik sanoatiga ixtisoslashtirilgan yo‘nalishida texnopark tashkil etish .	Ajratilgan yer maydonlari bo‘yicha loyiha tashabbuskorlarini aniqlash. Ob‘yekt infratuzilmasidagi muammolarni bartaraf etib borish.	Tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari, bank kreditlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiya va kreditlar	2023-yil iyun	“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi, Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, viloyat hokimligi, markaziy bank
12	Tashkil etiladigan texnoparkning bosh rejasini ishlab chiqish.	Texnopark bosh rejasida ishlab chiqarish zonasi hududida tekstil mahsulotlari uchun ko‘rgazma zali, yoshlarni kasbga o‘rgatish bo‘yicha o‘quv-mashg‘uloti xonalari bo‘lishi nazarda tutish va bosh rejaga asosan qurilish ishlari amalga oshirish.	Xisob kitoblar asosida	2023-yil iyul	Sirdaryo viloyati hokimligi, tuman hokimligi
13	Tashkil etiladigan texnoparklarni tegishli infratuzilma bilan ta‘minlash. Bunda; 1,0 km elektr tarmoqlarini tortish va 1 TPlarni qo‘yish; 1,0 km gaz tarmoqlarini tortish va 1 GRPlarni qo‘yish; 2,0 km suv tarmoqlarini tortish va 2 ta quduqlarni qurish; 0,5 km yo‘l qurish va rekonstruksiya qilish.	Infratuzilmadagi muammolarni bartaraf etish va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Hukumat komissiyasiga hisobot kiritib borish.	Xisob kitoblar asosida	2023-yil may	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
III. Viloyatni Qozog'iston, Tojikiston, Xitoy va Afg'oniston bilan bog'laydigan yirik logistika xabiga aylantirish bo'yicha tuman (shahar)da tashkil etiladigan logistika markazlari barpo etish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar					
14	Guliston sh. – Dexqonobod sh. yo'nalishidagi 4R27 yo'li qoplamasining 12 km.dan 25 km.gacha bo'lgan masofadagi qismini ta'mirlash.	Ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. Ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish va ishlarini yakuniga yetkazib, foydalanishga topshirish.	Respublika byudjeti	2023-yil sentyabr	Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasi, Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi DUK
15	Sirdaryo sh. – Dehqonobod sh. – Qiyot qishloq –Bekobod sh. yo'nalishidagi 4R26 yo'lining 52-70 km masaofadagi qismini mukkamal ta'mirlash.	Ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. Ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish va ishlarini yakuniga yetkazib, foydalanishga topshirish.	Respublika byudjeti	2023-yil sentyabr	Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Avtomobil yo'llar yo'llari xududiy boshqarmasi, Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi DUK

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
16	Sirdaryo sh. – Dehqonobod sh. – Qiyot qishloq –Bekobod sh. yo‘nalishidagi 4R26 yo‘lining 44-52 km masofoadagi qismini mukkamal ta‘mirlash.	Ta‘mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. Ta‘mirlash ishlarini moliyalashtirish va ishlarini yakuniga yetkazib, foydalanishga topshirish.	Respublika byudjeti	2023-yil oktyabr	Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi, Avtomobil yo‘llar yo‘llari xududiy boshqarmasi, Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi DUK
17	Guliston shahar-parandachilik FXXU-X.Olimjon FXXU yo‘nalishidagi 4K-653 yo‘lining 5-8 km masofoadagi qismini ta‘mirlash.	Ta‘mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. Ta‘mirlash ishlarini moliyalashtirish va ishlarini yakuniga yetkazib, foydalanishga topshirish.	Respublika byudjeti	2023-yil oktyabr	Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi, Avtomobil yo‘llar yo‘llari xududiy boshqarmasi, Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi DUK
IV. Tuman (shahar)ni qishloq xo‘jaligi bo‘yicha “Ilg‘or innovatsiyalar hududi”ga aylantirish, eng ilg‘or agrotexnologiyalar joriy qilish yuzasidan chora-tadbirlar					
18	Guliston tumani bo‘yicha iqlim sharoiti va tuproq tarkibidan kelib chiqqan holda jami 60 gektar mevali bog‘ barpo etishni ta‘minlash.	50 gektar va 10 gektar intensiv bog‘ va tokzorlarni zamonaviy suvtejamkor texnologiyalar asosida intensiv usulda barpo etish istagidagi tashabbuskorlarni aniqlash va bog‘ tashkil etish.	Tuman hokimligi hamda tashabbuskorlar mablag‘lari	2023-yil davomida	Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Viloyat hokimligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
19	Dala chetlaridan samarali foydalanish mevali daraxtlar, tut va tok ekinlarini ekishni tashkil etish.	Dala chetlaridan samarali foydalanish maqsadida fermer xo'jaliklarining dala chetlariga bozor konyukturasidan kelib chiqqan holda kasalliklarga chidamli 245 ming dona mevali daraxtlar va 36 gektar sabzavot, poliz va boshqa ekinlarni ekish.	Klaster va fermer xo'jaligi xisobidan hamda boshqa homiy tashkilotlari	2023-yil davomida	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat hokimi o'rinbosari, viloyat irrigasiya boshqarmasi, klaster va fermer xo'jaligi rahbarlari
20	Guliston tumanida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida: - sabzavot maydonini 830 gektardan 900 gektarga, - poliz maydonini 316 gektardan 350 gektarga, - kartoshka maydonini 230 gektardan 250 gektarga oshirish.	Fermer xo'jaliklarining asosiy maydonlarida 5 foizdan 10 foizgacha bo'lgan qismiga sabzavot, poliz hamda kartoshka ekinlari ekilishini tashkil etish.	Klaster va fermer xo'jaligi xisobidan hamda boshqa homiy tashkilotlari	2023-yil aprel, may oylarida	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Viloyat Irrigasiya boshqarmasi, Viloyat Meliorasiya boshqarmasi, Klaster va fermer xo'jaligi rahbarlari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
21	Guliston tumanda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish. Jumladan, mol go'shti 4,8 tn dan 4,9 tn ga, tovuq go'shti 1,2 tn dan 1,3 tn ga, tuxum 22,1 mln donadan 22,2 mln donaga.	Yangi texnologiyalar asosida loyixalar ishlab chiqish va amalga oshirish orqali chorvachilik va broller jo'ja yetishtirish samaradorligini oshirish.	Tashabbuskor mablag'lari, tijorat banklari kreditlari	2023-yil davomida	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat hokimligi, viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi, markaziy bank
22	Guliston tumanida irrigasiya va meliorasiya ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish.	1. 18.1 km irrigasiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish; 2. 25 km kollektor-drenaj tarmoqlarni, 1 dona tik drenaj quduqlarini va Tik kuduqlardagi ESV nasoslarni 5 ta elektro-dvigatellarni yangilash.	Suv xo'jaligi vazirligi mablag'lari	2024-2026 yy.	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Viloyat Irrigasiya boshqarmasi, Viloyat Meliorasiya boshqarmasi
23	Guliston tumanida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish.	Pudratchi tashkilotlar aniqlash va klaster, fermer xo'jaliklarining 2159- ming gektar ekin maydonlarida suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish. Shundan: 2014 gektar maydonda tomchilatib; 145 gektar maydonda yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish.	Klaster hamda bank kreditlari	2023-2024 yy.	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Viloyat Irrigasiya boshqarmasi, Markaziy bank

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
24	Guliston tumanidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tizimidagi suv xo'jaligi ob'yektlarini tizimli raqamlashtirish.	1.Loyixa asosida eliktron tallovga taqdim etib pudratchi tashkilotni aniqlash. 2.Bosqichma bosqich o'lchash uskunalari o'rnatish, 155 ta suv o'lchash postlarida "Aqlli suv" qurilmalarini va 4 ta suv xo'jaligi ob'yektiga (O'ng tarmoq 1, O'ng tarmoq 1-4 kanallariga) zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash orqali inshootlarning boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish.	Suv xo'jaligi vazirligi mablag'lari	2023-2024 yy.	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Viloyat Irrigasiya boshqarmasi
25	Guliston tumanidagi irrigasiya bo'limlari tarkibidagi suv xo'jaligining maxsus xizmati faoliyatini takomillashtirilgan holda suv resurrlaridan rasional foydalanish maqsadida uning aniq hisob-kitobi yuritilishini ta'minlash. Xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini tozalash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.	Tozalash va ta'mirlar rejasi ishlab chiqib 46.7 km ichki sug'orish tarmoqlarini 109 dona gidrotexnika inshootlarini 180 dona gidro-postlarni ta'mirlash.	Tuman Irrigasiya bo'limi xamda maxalliy byudjet	2023-yil avgust	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat irrigasiya boshqarmasi
26	Guliston tumanidagi paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari tomonidan qabul qilib olingan 125 km kollektor tarmoqlarini tozalash ishlarini tashkil qilish.	Maxsus texnikalarni jalb qilish va har bir fermer xo'jaliklarini o'z xududiga YOMM bilan ta'minlash.	Suv xo'jaligi vazirligi mablag'lari, klaster hamda fermer xo'jaliklari mablag'lari	2023-yil avgust	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat meliorasiya boshqarmasi
27	"Xanjin Turon agro" XK loyixalarini ishga tushirish.	"Xanjin Turon agro" XK tomonidan smart texnologiya asosidagi issiqxona, yangi navdagi tez pishar olma va danaksiz uzum maxsulotlari yetishtirishni yo'lga qo'yish. Bunda, "Xanjin Turon agro" XKga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyuldagi PF-6243-sonli Farmonining 3-bandiga asosan yer maydoni ajratilishini ta'minlash.	Loyixa tashabbuskorlari hamda bank kreditlari	2023-yil davomida	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi
V. Tuman (shahar)ni ta'lim va tibbiyot bo'yicha "Ilg'or innovatsiyalar hududi"ga aylantirish yuzasidan chora-tadbirlar					

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
28	Tumandagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan 8 ta mahallalarda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini faoliyatini tashkil etish.	Davlat dasturlari asosida loyiha smeta xujjatlarini tayyorlash. Moliyaviy manbani belgilash. A.Navoiy, Zarbdor, Ishonch, Mevazor, Boyovut, Soxil va X.Olimjon MFYlarda zamonaviy davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish.	Respublika byudjeti	2023-2026- yy	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.
29	Tumandagi 20 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 25 nomdagi o'quv-metodik va didaktik materiallarni yetkazib berish.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi zaruriy o'quv-metodik va didaktik qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash va buyurtmalarni shakllantirish.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	2023-2024 yy	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
30	Tumandagi o'rtacha qamrov darajasi past bo'lgan 3 ta MFY xududida maktabgacha ta'limning muqobil shaklini tashkil etish.	Boyovut, Soxil va X.Olimjon MFYlardagi bo'sh turgan binolarda qisqa muddatli guruhlar va 1 yillik majburiy maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etish.	Tuman xokimligi, Moliya bo'limi, Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	2023-2024 yy	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
31	Tumanda yangi 2 ta maktab qurish, 6 ta maktabda rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish.	2 ta yangi maktab qurish (Ishonch MFY yangi massivida 240 o'rinli, Mevazor MFY yangi massivida 240 o'rinli), 6 ta (3-, 10-, 15-, 16-, 22-, 31-) maktabda quvvatiga nisbatan o'quvchilar soni 1.7 koefisientdan oshgan maktablarda rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish.	Respublika va viloyat byudjeti	2024-2026 yy	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
32	Tumanda 3 ta (21- , 31- , 32- maktab) maktablarni zamonaviy kompyuter sinflari bilan ta'minlash.	Moliyaviy manbaalarni aniqlash va zamonaviy turdagi kompyuterlar jamlanmasi bilan ta'minlash.	Respublika va viloyat byudjeti	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
33	Tumanda 1 ta maktabda o'quvchilarni kasbga o'rgatish.	Tumandagi 29-maktabda o'quvchilarni kasb-xunarga o'rgatish bo'yicha markaz tashkil etish. Markazni kerakli jixozlar bilan ta'minlash va kasb-xunarga o'rgatish bo'yicha mutaxassislar jalb qilish.	Respublika va viloyat byudjeti	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
34	Tumandagi maktablarda o'quv jarayoniga 1 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb etish.	Xitoy tilini maktablarda o'qitishni tashkil etish maqsadida xorijiy mutaxassis jalb qilish va xorijiy mutaxassisga tumandagi o'qituvchilarni biriktirish.	Respublika va viloyat byudjeti	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
35	Tumandagi 2 nafar maktab o'qituvchilarini xorijda malaka oshirishlarini tashkil etish.	Xorijga 2 nafar o'qituvchini malaka oshirish uchun yuborish. Xorijda olingan zamonaviy o'qitish metodikalari bo'yicha tajribalarini tuman maktablarida joriy etish.	Respublika va viloyat byudjeti	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
36	Tumandagi 3 ta maktabda sport zal binolarini qurish.	Tumandagi 28-, 31-, 32-maktablarda sport zallarini qurish va sport jixozlari bilan ta'minlash.	Respublika va viloyat byudjeti	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
37	Tumandagi 21 ta maktabning moddiy-texnik bazasini zamonaviy o'quv dasturlari asosida yangilash.	Tumandagi 21 ta maktabda tabiiy fanlardan virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish uchun elektron doskalar va boshqa zarur texnikalar bilan ta'minlash.	Respublika va viloyat byudjeti	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
38	Tumanda maktabgacha va maktab ta'limi tizimida Xitoy tajribasini ommalashtirish.	Tumanda ta'lim sohasida Xitoy tajribasini ommalashtirish bo'yicha memorandum imzolash. Har chorakda Xitoylik mutaxassislar bilan masofaviy seminarlar tashkil etish.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
39	Tuman hududidan o'tuvchi Sirdaryo daryosi hududida "Xitoy-O'zbekiston bolalar EKO oromgohi"ni tashkil etish.	Qo'shma memorandum imzolash va loyiha smetalarini shakllantirish. Qurilish ishlarini amalga oshirish orqali tashkil etiladigan oromgoxda yiliga 2000 dan ortiq bolalarni sog'lomlashtirishga erishiladi.	Xorijiy investisiya mablag'lari	2023-2024 yy.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Markaziy bank
40	Guliston tumanida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini oshirish, birlamchi bo'g'in muassasalari, jumladan, oilaviy shifokor punktlari faoliyatini yaxshilash.	Furqat MFYda joylashgan 12-OP binosini mukammal ta'mirdan chikarish. Inoqlik MFYda joylashgan Chortoq oilaviy shifokorlik punkti binosini mukammal ta'mirlash.	Respublika byudjeti	2023-yil dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi
41	Guliston tumanda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarni kengaytirish va sifatini yaxshilash, shuningdek, ixtisoslashgan tibbiy markazlar filiallari faoliyatini rivojlantirish.	Chora-tadbir dasturini ishlab chiqish va tuman fukarolarining 19%ni yurak qon-tomir kasalliklari tashkil etishini xisobga olib, tuman markaziy shifoxona balansida Respublika kardiologiya markazi filialini tashkil etish. Filialni zaruriy zammoviy moddiy va skrining texnik jihozlari bilan ta'minlash.	Respublika byudjeti	2023-yil dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi
42	Guliston tumanida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga byudjet mablag'lari hisobidan ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarni ko'rsatishning yangi tizimini joriy etish.	Chora-tadbir dasturini ishlab chiqish. Ixtisoslashgan kardiologik yordam sifatini oshirish va ish samaradorligini yaxshilash uchun filialni EXO kardiograf apparati bilan ta'minlash.	Respublika byudjeti	2023-yil dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
43	Guliston tumanida yangi turdagi va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, xususiy tibbiyotni rivojlantirish.	Yuqori texnologik laparoskopik kam qin vaziv amaliyotlarni tadbiq qilish uchun shifokorlar malakasini oshirish, ularni ixtisoslashgan kurslarda o'qitishni yo'lga qo'yish.	Respublika byudjeti	2023-yil dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi
44	Guliston tumanining aholisi orasida eng ko'p uchraydigan kasalliklarni kamaytirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.	Tuman axolisining 28% ni yuqori nafas yullari va o'pka kasalliklari bilan kasallanganligini xisobga olib, tizimli skriningni olib borish maqsadida raqamli flyurograf apparati bilan ta'minlash.	Respublika byudjeti	2023-yil dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi
45	Guliston tumanida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga byudjet mablag'lari hisobidan ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarni ko'rsatishning yangi zamonaviy tizimini joriy etish.	Xorijiy mutaxassislar ko'magida qisqa o'quvlar tashkil qilish orqali mutaxassislar bilimini oshirish. Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda tibbiy sug'urta tizimini mukammallashtirish, bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga sug'urta qilinganlik bo'yicha guvohnomalar taqdim etish jarayonini tashkil qilish. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash maqsadida tibbiyot birlashmalari qoshida jamg'arma tashkil qilish, (jamg'arma mablag'lari aholi tomonidan tibbiy xizmat uchun to'lanadigan mablag'ning ma'lum foizi xisobidan shakllanadi) jamg'arma mablag'lari xisobidan murakkab jarrohlik amaliyotlari o'tkazish (ayrim hollarda daftarlarga olish uchun nizomga to'g'ri kelmaydigan ammo qiynalgan oila vakillari uchraydi).	Mahalliy byudjet Tibbiyot jamg'armalari Tibbiyot jamg'armalari	2023-yil dekabr 2023-yil dekabr 2023-yil dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
46	Guliston tumanining aholisi, ayniqsa ayollar orasida uchraydigan eng ko'p kasalliklarni kamaytirish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish.	Ayollar o'rtasida uchraydigan kasalliklarni oldini olish maqsadida majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish tizimini joriy etish. Tibbiyot xodimlari, jumladan xamshiralar shtatini ko'paytirish orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish.	Mahalliy byudjet	Doimiy	Tuman hokimligi, tuman tibbiyot birlashmasi
47	Guliston tumanida tug'ish yoshidagi ayollarni sog'ligini tiklash maqsadida tizimli ishlarni tashkil qilish.	Tug'ish yoshidagi ayollarni sog'ligini tiklash maqsadida kasaba uyushmalari tomonidan bir yilda bir marotaba sog'lomlashtirish yoki sihatgohlarda dam olish uchun imtiyozlar yaratish.	Mahalliy byudjet	Doimiy	Tuman hokimligi, tuman tibbiyot birlashmasi
48	Guliston tuman xududidan o'tuvchi Sirdaryo daryosi xududidagi qum barxanlaridan zamonaviy Xitoy tabobati asosida foydalanishni tashkil etish maqsadida aholi orasida ortib borayotgan semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga davolanish uchun sog'lomlashtirish maskani faoliyatini yo'lga qo'yish.	Xitoy tibbiyot markazi bilan memorandum imzolash. Sog'liqni saqlash vazirligidan lisenziya olish va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalar	2024 yil	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, viloyat hokimligi, viloyat tibbiyot birlashmasi
VI. Tuman (shahar)da aholi bandligi ta'minlash va uni ishsiz hududga aylantirish chora-tadbirlari					
49	Guliston tumanining yangi investisiya loyihalarni ishga tushirish hisobiga 1492 ta ish o'rinlarini tashkil etish.	Loyihalarning amalga oshirilishi choralarni ko'rish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, loyihalarni ishga tushishini ta'minlash	Tashabbuskor o'z mablag'i, Bank krediti	2023-yil dekabr	Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Viloyat hokimligi, Markaziy bank

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati		Ijro uchun mas'ullar
50	Guliston tumanida har bir oila tadbirkor dasturi orqali 76.7 mlrd.so'm imtiyozli kredit mablag'lari va 2.4 mlrd. so'mlik subsidiyalar hisobiga 3143 ta aholi bandligini ta'minlash.	Hokim yordamchilari tomonidan tashabbuskorlarni aniqlash va ularga kreditlar ajratish. Temir daftar, Ayollar daftari va Yoshlar daftari turgan va ishsiz bo'lgan fuqarolarni kasb hunarga o'qitish, xunarmadchilik asosida hamda ularga subsidiyalar ajratish orqali bandligini ta'minlash.	Imtiyozli kredit mablag'lari, Subsidiyalar	Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank	
51	Guliston tumanida e-auksion.uz axborot tizimi orqali aholiga 436 gektar yer maydonlarda dehqon xo'jaliklarini (0,50 sotix) tashkil etish orqali 872 ta ishsiz aholining bandligini ta'minlash.	Lotlarga ajratilgan yerlarni auksionga chiqarish va sotilishini ta'minlash.	Tashabbuskor o'z mablag'lari, Bank krediti	Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank	
52	Guliston tumandagi klasterlarga birlashtirilgan 18 ta mahallalardagi 860 ta ishsiz aholini bandligini ta'minlash.	1.Lotlarga ajratilgan yerlarni auksionga chiqarish va sotilishini ta'minlash. 2.Lotlarga ajratilgan yerlarni sotish natijasida mavsumiy ishlarni tashkil etish asosida 860 ta ish o'rinlarini tashkil etish.	Tashabbuskor o'z mablag'lari, Bank krediti	Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank	
53	Guliston tumanida mavsumiy ishlarga jalb qilish orqali 5322 ta aholini bandligini ta'minlash. Bunda: - qishloq xo'jaligi yo'nalishida 4702 ta; - ipakchilik yo'nalishida 560 ta; - qurilish ishlarida 60 ta aholini bandligini ta'minlash.	Ishsiz fuqarolarni mavsumiy ishlarga ya'ni ipakchilik, qurilish ishlariga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etish orqali aholi bandligini ta'minlash.		Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	
54	Guliston tumanida mikromarkazlarni tashkil etish orqali 128 ta aholini bandligini ta'minlash.	Prezident Qarorining 431-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Guliston tumani Ibrat MFY xududida mikromarkaz tashkil etish evaziga 128 ta ishsiz fuqarolarni (kundizgi va kechki) smenada orqali bandligini ta'minlash.	Tashabbuskor o'z mablag'lari, Bank krediti	Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank	

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
55	Guliston tumanida kasbga o'qitish orqali 950 ta aholini bandligini ta'minlash.	Ishsiz fuqarolarni Guliston shaxridagi Monomarkazda 27 ta yo'nalish bo'yicha kasbga o'qitish va qurilish kollejida 7 ta yo'nalish bo'icha o'qitish. Tumandagi Kamila tikuv markazlarida 12 ta xar xil turdagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga o'qitib, chet davlatlarga ishga yubrish, ishga joylashtirish va subsidiyalar ajratish orqali bandligini ta'minlash.	Jamg'arma mablag'lari	Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
56	Guliston tumanidagi ishsizlarning mehnat bandligini ta'minlash yuzasidan ularni ishga joylashtirish choralarini ko'rish.	Tuman tashkilotlari va korxonalaridagi bo'sh ish o'rinlarni aniqlashtirish va tumandagi 963 nafar ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash.	Ish beruvchi korxonalar mablag'lari	Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
57	Guliston tumanida yirik ishlab chiqarish korxonalarini negizida kasb-xunar maktablarini tashkil etish.	Yirik ishlab chiqarish korxonalarini hamda kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi bilan shartnoma imzolash. Kasb-xunar maktablarini tashkil etish va o'qish istagida bo'lgan yoshlarni o'qitish.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik jamg'armasi	Yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank
VII. Tuman (shahar)da jinoyatchilikni qisqartirish chora-tadbirlari					
58	Guliston tumanining har bir mahallasida huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning ijtimoiy muammolarini hal etish tizimini amaliyotga tatbiq etish.	1. Huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarning ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqib, har bir sektor kesimida shakllantirish. Ro'yxatlarni joylardagi sektor rahbarlariga taqdim etish. 2. Ro'yxatlarga kiritilgan shaxslar bilan "fuqarobay" tamoyili asosida profilaktik ishlarni amalga oshirish va mavjud muammolarini aniqlab, hal etish orqali ularni sog'lom hayot tarziga qaytarish. 3. Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijadorligini tanqidiy muhokama qilib borish.		Doimiy ravishda	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarilari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
59	Guliston tumanida “ Ijtimoiy profilaktika ” tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlarning ijrosini ta‘minlash.	Tumandagi 4 ta sektor shtabi tarkibidagi barcha idoralar vakillariga hududdagi mahallalarni birlashtirish va ular tomonidan jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni “vertikal” tamoyili asosida tahlil qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish: – mahallalarda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy muhokama qilib borish; – huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilash; – sodir etilgan jinoyatlar muhokamasi tadbirlarida mas‘ul davlat idoralari rahbarlari va mas‘ul xodimlarining ishtirokini ta‘minlash; – kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mutasaddi idora va tashkilot rahbarlarini viloyat darajasida tanqidiy muhokama qilib borish		Xar oyda	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarlari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
60	<p>Guliston tumanida Xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning oldini olish borasida chora-tadbirlarni belgilash.</p> <p><i>o'tgan yil shu davrida 1 ta jinoyat xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan, 2023-yilda Guliston tumanida xotin-qizlar jinoyati mavjud emas.</i></p>	<p>1. Har bir mahallada nuroniy onaxonlar, faol ayollardan iborat ishchi guruhlarini tashkil etish.</p> <p>2. Ishchi guruhlar tomonidan uyma-uy yurgan holda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarning ro'yxatini tuzish.</p> <p>Bunda, ro'yxatdagi xotin-qizlarning ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rish;</p> <p>– ayollar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy o'rganish va natijalarini muhokama qilish.</p> <p>3. Ayollar uchun mahallalarda kundalik hayotda ehtiyoji yuqori bo'lgan sohalar, xususan tikuvchilik, pazandachilik, sartaroshlik va boshqa yo'nalishlarda kasb-hunarga o'rgatish kurslarini tashkil etish.</p> <p>4. Jinoyat sodir etgan har bir ayolga mahallada xotin-qizlar faoli va hududdagi obro'li ayollarni mas'ul etib biriktirish</p>		Xar oyda	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarlari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
61	<p>Guliston tumanida Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish va jilovlash bo'yicha mahallalar kesimida manzilli chora-tadbirlarni belgilash.</p> <p><i>2023-yilda Guliston tumanida 2 ta jinoyatlar yoshlar tomonidan sodir etilgan.</i></p>	<p>1. Jinoyat va huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan hamda tungi vaqtda bemaqsad yuradigan yoshlarning "mahallabay" ro'yxatlarini shakllantirish.</p> <p>2. Har bir mahalla raisi profilaktika inspektorlari va yoshlar yetakchilari tomonidan mazkur ro'yxatlarga kiritilgan yoshlar bilan individual tarzda yakka tartibdagi ishlarni tashkil etish, ularning mavjud muammolarini hal etish choralari ko'rish.</p> <p>3. Ro'yxatlarga kiritilgan yoshlar bilan sektor rahbarlari ishtirokida uchrashuvlarni tashkil etish.</p> <p>4. Uyushmagan yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun manzilli vatanparvarlik ruhida madaniy-ma'rifiy, sport tadbirlarni va kasb-hunarga o'rgatishni amalga oshirish.</p>		Xar hafta	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarilari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
62	<p>Guliston tumanida Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni barvaqt jilovlash borasida manfaatdor idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p><i>2023-yilda Guliston tumanida voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilmagan.</i></p>	<p>1. Xulq-atvorida o'zgarish bo'lgan, moddiy jihatdan qiynalayotgan, darslarga muntazam ravishda qatnashmayotgan, o'zlashtirish darajasi past, tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlarni kuchaytirilgan tarzda o'tkazish.</p> <p>2. Salbiy xulq-atvordagi voyaga yetmaganlarning oilalariga moddiy yordam ko'rsatish, ishsiz oila a'zolarining bandligini ta'minlash, subsidiyalar berish orqali tadbirkorlikka jalb etish.</p> <p>3. Tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish.</p> <p>4. Ta'lim muassasalarida manfaatdor tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda "Davomat" va "Tig'" maxsus profilaktik tadbirlarni muntazam o'tkazib borish.</p> <p>5. Maktablarda tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan psixokorreksiya mashg'ulotlarini olib borish bo'yicha alohida xonalarni ajratish va zaruriy vositalar bilan ta'minlash.</p>		Xar hafta	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarlari
63	<p>Ilgari sudlangan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish borasida ularni sog'lom turmush tarziga qaytarish borasidagi chora-tadbirlarni belgilash.</p> <p><i>2023-yilda Guliston tumanida sodir etilgan jinoyatlar, ilgari sudlanganlar tomonidan sodir etilmagan.</i></p>	<p>1. Sektor rahbarlari tomonidan ilgari sudlangan shaxslarning yashash sharoitini, ularning muammolari, daromad manbalarini o'rganib, hal etib borish.</p> <p>2. Bandligi ta'minlanmagan ilgari sudlangan shaxslar bilan yakka tartibdagi suhbatlar asosida ularni tadbirkorlik, tomorqachilik va hunarmandchilikka jalb etish.</p>		Mavsum davomida	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarlari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
64	Guliston tumanida mehnat migrasiyasidan qaytib kelgan fuqarolar bandligini ta'minlash va reintegrasiya qilish choralarini ko'rish.	1. Xorijdan qaytgan fuqarolar kasb va ko'nikmalari bo'yicha o'rganishlar olib borish, ularning bandligini ta'minlash, qayta tayyorlashga ehtiyoj, tadbirkorlikka jalb etish imkoniyatlarini ko'rib chiqib, manzilli dasturlar tayyorlash. 2. Joriy yilning 3 oyi davomida 86 nafar xorijdan qaytgan fuqarolarni doimiy va vaqtinchalik ish o'rinlariga joylashtirish, kasbga o'qitish hamda tadbirkorlikka jalb qilish.	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi	2023-yil yakuniga qadar	Ichki ishlar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
65	Guliston tumanida jamoat va gavjum joylarida aholi osoyishtaligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilash.	Tuman hokimligi, MG, IIB, DSB, FVB, SSB va prokuratura mas'ul xodimlaridan iborat idoralararo maxsus komissiya tashkil qilish va jamoat va gavjum joylarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.	Tuman xokimligining mablag'lari	2023-yil yakuniga qadar	Ichki ishlar vazirligi, Tibbiyot birlashmasi, Sektor rahbarilari
66	Guliston tumanida Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini kuchaytirish.	Quyidagilarni inobatga olgan holda kiberjinoyatlar oldini olish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish: – Milliy gvardiya xodimlari yordamida qo'riqlanayotgan ob'yektlar, ayniqsa bank, bozorlar va ko'ngilochar maskanlarda ishchilarni va aholini kiberjinoyatlar haqida ogohlantirish; – mehnat jamoalarda, mahalla va bank plastik kartalaridan pullarni o'g'irlash holatlaridan eng sodda himoyalanih usullarini tushuntirish; – terminal va bankomatlar mavjud joylarda fuqarolarni kiberjinoyatlardan ogohlantirish bo'yicha targ'ibot vositalarini joylashtirish.		Doimiy ravishda	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarilari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
67	Guliston tumani yo'llarida xavfsiz sharoitlarni, hamda fuqarolar uchun munosib yo'l infratuzilmasini yaratish.	1. Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish yo'nalishida quyidagi ishlarni amalga oshirish: – yangi yo'l belgilarini o'rnatish, – yaroqsiz yo'l belgilarini almashtirish; – maktablar oldida yo'l belgilarini o'rnatish; – yo'l ko'rsatkich o'rnatish; – yo'llarni sun'iy yoritish; 2. o'llar yoqasidagi tungi yoritilmagan piyodalar uchun tratuar va yo'lakchalar mavjud bo'lmagan joylarida piyodalar uchun yo'lakchalar qurish va yoritish.	"Xavfsiz va ravon yo'l jamg'armasi"	Doimiy ravishda	Ichki ishlar vazirligi, Sektor rahbarilari
VIII. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17 fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori bo'yicha					
68	Guliston tumanidagi 36 ta ijtimoiy soha ob'ektlari va davlat idoralariga quvatti 0.4 mVtli kichik elektr energiyasini ishlab chiqarish qurilmalarini o'rnatish.	Ijtimoiy soha obektlari va davlat idoralari tomiga quyosh panellarini o'rnatish asosida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish.	Maxalliy byudjet	2023-yil may	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Viloyat hokimligi
69	Guliston tumanidagi tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan quvvati 0.6 mVtli 31 ta ob'ektlarga kichik elektr energiyasini ishlab chiqarish qurilmalarini o'rnatish.	Tadbirkorlarning bino va inshootlariga quyosh panellari o'rnatish.	Tadbirkorning o'z mablag'lari, Bank krediti	2023-yil sentyabr	Markaziy bank, Tuman hokimligi
70	Guliston tumanidagi 54 ta aholi xonadonlariga quvvati 0.3 mVtli kichik elektr energiyasini ishlab chiqarish qurilmalari xamda 7.5 ming litrli gelio-kollektorlar o'rnatish.	Qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini o'rnatish ishtiyohi bo'lgan turg'unlarni aniqlashtirish va 54 ta aholi xonadonlariga quyosh panellarini o'rnatish asosida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish.	Tadbirkorning o'z mablag'lari, Bank krediti	2023-yil sentyabr	Markaziy bank, Tuman hokimligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
71	Guliston tumani xududida 2023 -yilda foydalanishga topshiriladigan 3 ta ko'p qavatli uylarga quvvati 0.06 mVtli kichik elektr energiyasini ishlab chiqarish qurilmalarini o'rnatish.	2023-yilda yangi qurib foydalanishga topshiriladigan uylarni loyihalashtirishda 3ta ko'p qavatli uylarga kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatilishini ta'minlash.	Tadbirkorning o'z mablag'lari, Bank krediti	2023-yil sentyabr	Markaziy bank, Tuman hokimligi
72	Guliston tumanidagi 34 ta ijtimoiy soha ob'yektlaridagi tabiiy gazda ishlovchi lokal isitish tizimlarini ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish.	Tumanda yoqilgi resurlaridan rasional foydalanish maqsadida tumandagi 34 ta ijtimoiy soha obektlarining lokal isitish tizimlarini ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish.	maxalliy byudjet	2023-yil oktyabr	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Viloyat hokimligi
IX. Turizm va xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha					
73	Guliston tumanida ichki turizmni rivojlantirish maqsadida 10 ta yangi zamonaviy uy mehmonxonalarini tashkil etish.	Loyiha tashabbuskorlarini aniqlab, madaniyat va turizm boshqarmasi bilan hamkorlikda uy mehmonxonalari eskizlarini tayyorlash.	Tashabbuskor mablag'lari, Bank kreditlari	2024 yil iyul	Madaniyat va turizm vazirligi, Viloyat xokimligi, Markaziy bank
74	Guliston tumanida daryo o'zani bo'yida Ekoturizmni rivojlantirish maqsadida dam olish maskanlarini tashkil etish. (Sirdaryo, Sayxunobod, Guliston tumanlari)	FVV dan o'zan xududida yengil konstruksiyali binolar qurish uchun ruxsat olish va tashabbuskorlarni aniqlash. Xorijiy investorlarni jalb qilish.	Tashabbuskor mablag'lari, To'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalar, Bank kreditlari	2024 yil iyun	Investisiyalar sanoat va savdo vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Viloyat xokimligi, Markaziy bank
XII. Boshqa muammoli masallarni hal etish chora-tadbirlari					

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
75	Yulduz maxallasi Shodlik massivi xududida joylashgan 260 ta xonadonlarga yog'ingarchilik tufayli yig'ilib qoladigan sizot suvlarini chiqib ketishi uchun 17 km masofada ichki zovurlar (latok) xamda 2 dona drenaj tizmini o'rnatish.	Ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, qurilish ishlarini moliyalashtirish va qurilish ishlarini boshlash.	Respublika byudjeti	2023-yil iyul	Iqtisodiyot va moliya vazirligi
76	Guliston shaxar gaz taqsimlash stansiyasidan Guliston tumani yo'nalishiga alohida 20 km uzunlikdagi D-273 mm bo'lgan yuqori bosimli gaz quvuri tortish.	Ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, qurilish ishlarini moliyalashtirish va qurilish ishlarini boshlash.	Respublika byudjeti	2023-yil iyul	Energetika Vazirligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ
77	Guliston tumanni Yulduz maxallasi xududida qurilishi to'xtab qolgan 7 ta ko'p qavatli uy joylarni qurilish ishlarini davom etirish uchun "Alisher us bilding" MCHJ "Sir gidro servis" MCHJ, "Fazliddin Mamarajabov" MCHJ "Qo'ziboy ota sulolasi" MCHJ "Farovon yuksalish qurilish" MCHJ tashkilotlarga ipoteka kreditlari ajratish.	Tijorat banklari tomonidan kredit ajratish va qurilish ishlarini davom etirish.	Bank krediti	2023-yil avgust	Viloyat hokimligi Markaziy bank